



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Меҳринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI

Jahongir Rasulovich Zaynalov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i.f.d.

Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA TURIZM XIZMATLARINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy mexanizmlari tahlil etilgan. Turizm sohasi aholi bandligini oshirish, ayniqsa qishloq hududlarida qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, turizm xizmatlarining kengayishi orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining iqtisodiy faolligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turizm xizmatlari, kambag‘allik, iqtisodiy mexanizm, bandlik, qishloq hududlari, mahalliy resurslar, daromad, xizmat ko‘rsatish, iqtisodiy faollik, rivojlanish..

Kirish. XXI asrda turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va ko‘p tarmoqli sohalaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Uning taraqqiyoti transport, aloqa, joylashtirish, umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko‘rsatish va boshqa ko‘plab yondosh tarmoqlar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshib, iqtisodiy tizimning kompleks rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois turizm nafaqat iqtisodiy o‘rishni ta‘minlovchi, balki ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim tarmoq sifatida e‘tirof etiladi [1]. Bugungi kunda turizm xizmatlari yuqori daromadli va samaradorligi yuqori bo‘lgan sohalardan biri hisoblanib, ko‘plab davlatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida sezilarli ulushga ega. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, turizm rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar eksporti kengayib, aholi bandligi oshgan hamda hududiy iqtisodiy tafovutlar qisqargan. Shu bilan birga, turizm kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga kuchli turtki beruvchi omil sifatida ham e‘tirof etiladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan turizm iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim omil sifatida qayd etilgan [2]. Bu esa turizm xizmatlarining nafaqat iqtisodiy o‘rish, balki ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, O‘zbekistonda turizm xizmatlarini rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning muhim iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda. Qishloq hududlarida mavjud tabiiy, madaniy va tarixiy resurslardan samarali foydalanish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirish imkoniyati kengaymoqda. Bu jarayon mehnat bozorida bandlik darajasining oshishiga va iqtisodiy faollikning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning samaradorligini baholash hamda amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Turizm xizmatlari tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, so‘nggi yillarda chop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlar hamda lug‘atlarda uning nazariy asoslari turlicha talqin etilmoqda. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ushbu tushunchaga ko‘proq aholining sayohat va dam olish ehtiyojlarini qondiruvchi hamda iqtisodiy faollikni oshiruvchi muhim tarmoq sifatidagi yondashuvlar ustuvorlik qilmoqda. Bu esa turizmning nafaqat xizmatlar sohasi, balki kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizm sifatidagi ahamiyatini ham kuchaytirmoqda.

Misol uchun, rossiyalik iqtisodchi olimlar A.S. Kuskov va Yu.A. Djaladyan “Turizm asoslari” nomli darsligida turizm xizmatini turizm kompaniyalarining turistik mahsulotni yaratishdagi faoliyatining asosiy qismi hamda uning yakuniy natijasi sifatida ta‘riflaydilar [4].

L.V. Staxova esa turizm xizmatlarini bozor segmenti sifatida ko‘rib, uni umumiy ovqatlanish, transport, mehmondo‘stlik industriyasi, savdo va madaniyat kabi xizmat tarmoqlarini o‘zaro birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida izohlaydi [5].

Shuningdek, o‘zbekistonlik olimlardan I.S. Tuxliyev, G‘.X. Qudratov va M.Q. Pardayevlar turistik xizmatlarni turistlarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan, turistik korxonalar faoliyati natijasi sifatida talqin etib, uning xizmatlar sohasi va iqtisodiy tizimdagi o‘rnini alohida ta‘kidlaydilar [6].

Yuqorida keltirilgan olimlarning yondashuvlari turizm xizmatlari tushunchasiga turlicha ta’rif berilganini ko’rsatsa-da, ularning barchasi mazkur sohaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini, xususan kambag‘allikni qisqartirish va hududiy rivojlanishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganishda tahlil va sintez, iqtisodiy-tashkiliy yondashuv, mantiqiy tahlil, induktiv va deduktiv usullar hamda mantiqiy fikrlashdan samarali foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli va dialektik yondashuv asosida turizm xizmatlari, bandlik va kambag‘allik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar kompleks tarzda tahlil qilindi.


Tahlil va natijalar. “Kambag‘allik” yoki “qashshoqlik” terminlari iqtisodiy adabiyotlarda keng qo‘llanilib kelmoqda. Iqtisodchi olimlar hamda siyosiy soha vakillari bu masalaga e’tibor qaratib, nazariy fikrlarni bayon etib, hatto o‘ziga xos ta’riflarni ham berib kelmoqda. Biroq bu qarashlar qay darajada asoslangan, degan savolga aniq javob topish har doim ham oson emas.

Bizning fikrimizcha, bunday masalalarni kun tartibidan chiqarish emas, balki ularning mohiyatini chuqurroq o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Nima uchun ayrim kishilar sanoat sohasida ishlab, keyinchalik ishdan bo‘shaydi? Chunki bu soha u istiqomat qiladigan hududda mavjud emas. Boshqa sohalar esa murakkab ixtisoslikni talab etadi. Kambag‘allik chegarasiga yetib qolgan shaxs bunday ishga darhol rozi bo‘la olmaydi. Natijada uning faollik darajasida sustlik yuzaga keladi. Shunday bir paytda kambag‘allik chegarasidan chiqishda muhim ahamiyat kasb etadigan sohalardan biri turizm hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligining ayrim yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashgan turizm samarali natija berishi mumkin: dorivor ekinlar; dorivor mevalar; dorivor yog‘lar; dorivor xususiyatga ega oziq manbalari va boshqa tabiiy resurslar.

Turizm faolligi oshib, yangi obyektlar yuzaga kelsa, har bir turistik obyektlar atrofida 20–30 tagacha yangi mehnat yoki faoliyat yuritish imkoniyati yaratilishi mumkin. E’tibor berish lozimki, bu yerda faqat doimiy ish o‘rni emas, balki turli ko‘rinishdagi xizmat faoliyati ham nazarda tutiladi. Bunday faoliyat aholini ta’minlash darajasidan kelib chiqib, muayyan imtiyozlarga ega bo‘lishi mumkin. Biroq bu jarayon bo‘yicha aniq statistika yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Misol uchun, ayrim hududlarda bitta turistik obyektlar atrofida 20 dan ortiq tuya yordamida turistlarni sahro bo‘ylab sayohatga olib chiqish, 14 nafar odamning yog‘ tayyorlash va sotish bilan shug‘ullanishi, 15 nafar kishining esa sayyohlarga tuya minish xizmatini ko‘rsatishi mumkin. Minimal to‘lov miqdori 5–10 AQSH dollarini tashkil etib, bir kunda 10–14 nafar sayyohga xizmat ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Dubaydagi akvariumlarda baliqlarni parvarish qilish va suvni tozalash ishlariga ham kam daromadli qatlam vakillari jalb etilayotgani kuzatiladi. Bizda ham shunga o‘xshash imkoniyatlar mavjud. Masalan, Kitob tog‘ida 50 nafardan ortiq aholi dorivor o‘simliklar va shu kabi mahsulotlarni sotadi. Ularni mahsulot bilan ta’minlashga esa 100 nafardan ortiq yoshi katta kishilar yoki yoshlar jalb etilmoqda. Qozog‘istonning Chimgent tog‘ bag‘irlarida esa qo‘ziqorin kabi mahsulotlarni yetishtirib sotish yoki topshirish orqali yillik 10–12 ming AQSH dollari miqdorida daromad olish mumkinligi qayd etiladi. Bunday faoliyat turlariga ro‘voch, jiyda, uzum mahsulotlarini quritish, ayrim tabiiy boyliklardan foydalanish va boshqa shu kabi yo‘nalishlar kiradi. Shuningdek, quruq iqlim, astma, oyoq og‘rig‘i, ko‘z bilan bog‘liq muammolar uchun changsiz hududlardan turistik-resurs sifatida foydalanish ham mumkin.



Kambag‘allik aholining eng faol qatlamini cheklab qo‘yadi. Biroq yashash joyi, imkoniyat va motivatsiya o‘zgarsa, insonda yangi fikrlar, strategiyalar va tashabbuslar shakllanishi uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Shu jihatdan turizm xizmatlarini rivojlantirish aholining moliyaviy faolligini ta’minlashga ma’naviy va iqtisodiy sharoit yaratib beradi. Turizm xizmatlari rivojlanishi bilan sport, rekreatsiya va dam olish bilan bog‘liq xizmat turlarining ham

kengayishi kuzatiladi. Bu esa xizmatlar ko‘lamining ortishi bilan birga yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Xususan, mehmonxona infratuzilmasining rivojlanishi dastlab bevosita bandlikni shakllantirsa, keyinchalik transport, ovqatlanish, savdo va boshqa yondosh xizmatlar orqali bilvosita bandlikni ham oshiradi.

Kambag‘allikni o‘lchash masalasi alohida yondashuvni talab qiladi. Kambag‘al inson kun kechira oladi, ammo u yashash uchun doimiy harakatda bo‘ladi. Fuqarolar ko‘pincha mehmonxona uchun emas, balki tabiat uchun keladi. Shu sababli ularga palatkali dam olish joylari ham lozim bo‘ladi va bu orqali qo‘shimcha bandlik yuzaga keladi.


Xalqaro amaliyotda yuqori daromadli turistlar uchun mo‘ljallangan eksklyuziv turizm xizmatlari ham mavjud bo‘lib, ular turizm industriyasining daromadlilikini oshirishga xizmat qiladi. Eng qimmat turizm turlaridan biri sifatida Afrikada yovvoyi hayvonlarning ov jarayonini kuzatish keltiriladi. Shu jihatdan turizm xizmatlari turli daromad guruhlariga mos ravishda differensial shakllanadigan murakkab iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson ayrim hollarda ikki narsani amalga oshirishga qiynaladi: aqlning mavjudligi va pulning yetishmasligi o‘rtasidagi ziddiyat bunga sabab bo‘ladi.

Haqiqatni topishdan ko‘ra xatoni topish osonroq. Ayrim xizmatlar uchun to‘lovlar mavjud bo‘lib, ular byudjetni to‘ldirishga ham xizmat qiladi.


Dunyo – bu turizm, faqat inson unda o‘z o‘rnini topa olishi lozim.

Dunyo – bu musiqa, faqat inson unda o‘z o‘rnini topa olishi lozim.



Sayyohlar soni har bir obyekt bo‘yicha 1–2 kishiga oshsa, yengil bandlik 3–4 taga ko‘payishi mumkin.

Sabablari quyidagilardan iborat.



Diversifikatsiya va ilg‘or g‘oyalar istiqbolli yo‘nalishlar sifatida bunday tarmoqlarda yetarlicha faol va obyektiv qo‘llanilmagan. Endilikda ularni amaliyotga joriy etish barcha salbiy to‘siqlarning oldini olishga imkon yaratadi. Shu sababli bu tizimni puxta yo‘lga qo‘yish lozim.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allik yoki qashshoqlik masalasi faqat daromad yetishmasligi bilan emas, balki hududiy iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, bandlik strukturasi nomutanosibligi hamda mehnat bozori diversifikatsiyasining sustligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayrim hududlarda sanoat va yuqori ixtisoslik talab qiluvchi sohalarining yetishmasligi aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi, natijada kambag‘allik darajasi barqaror saqlanib qoladi yoki kuchayadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, turizm xizmatlari kambag‘allikni qisqartirishning muhim iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Turizm sohasi murakkab ishlab chiqarish tarmoqlariga nisbatan moslashuvchan bo‘lib, u mahalliy resurslar, tabiiy imkoniyatlar va hududiy ijtimoiy muhit asosida tezkor daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan dorivor o‘simliklar, ekologik toza mahsulotlar, tabiiy landshaftlar va madaniy resurslar turizm faoliyatining iqtisodiy bazasini kengaytiradi. Turizmning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, har bir yangi turistik obyekt atrofida qo‘shimcha iqtisodiy faollik shakllanadi. Ya’ni, bitta turistik

nuqta yuzaga kelishi bilan transport, ovqatlantirish, gidlik, hunarmandchilik, mahsulot sotish, xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda o'nlab kichik bandlik imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu esa “kichik iqtisodiy zanjirlar” orqali aholi daromadining oshishiga olib keladi. Amaliy kuzatuvlarga ko'ra, turizm infratuzilmasi rivojlangan hududlarda aholi nafaqat doimiy ish o'rinlari, balki mavsumiy va qo'shimcha daromad manbalariga ham ega bo'ladi. Masalan, tabiiy hududlarda dorivor o'simliklarni yig'ish va sotish, mahalliy mahsulotlarni qayta ishlash, sayyohlarga xizmat ko'rsatish kabi faoliyatlar orqali aholi o'z iqtisodiy holatini yaxshilashi mumkin. Bu jarayon oddiy mehnat resurslarini ham iqtisodiy tizimga integratsiya qilish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Turizm infratuzilmasini ayniqsa qishloq va chekka hududlarda kengaytirish orqali mahalliy resurslardan samarali foydalanish va yangi bandlik yo'nalishlarini yaratish.
- Dorivor o'simliklar, tabiiy mahsulotlar va ekologik resurslarga asoslangan agro-turizm va ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish.
- Har bir turistik obyekt atrofida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus “mikro-bandlik zonalari”ni shakllantirish.
- Aholining turizm sohasidagi ko'nikmalarini oshirish maqsadida qisqa muddatli amaliy o'quv kurslari va treninglarni joriy etish.
- Mahalliy mahsulotlarni sayyohlik xizmatlari bilan integratsiya qilish orqali “turizm + hunarmandchilik + qishloq xo'jaligi” modelini rivojlantirish.
- Turizm faoliyatini raqamli platformalar orqali qo'llab-quvvatlash, xizmatlarni onlayn sotish va reklama qilish tizimini kengaytirish.
- Hududiy turizm loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish orqali investitsiya jalb etishni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO. Tourism and Sustainable Development Goals – Global Report. Madrid: World Tourism Organization, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishga oid nutq va farmonlar to'plami. – T.: O'zbekiston, 2021–2024 yillar.
3. Umirzoqova. M. American Journal of Economics and Business Management. 2025 Vol. 8 Issue 6 | pp. 2924-2929 | ISSN: 2576-5973 Available online <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/3723>
4. Y.P.Urunbayeva. O'zbekistonda yangi-muzey turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning SERVIS, ilmiy-amaliy j., Samarqand, 2024, 2\1 son, 83-87 b. maqsadi va vazifalari
5. A.C. Кусков. Ю.А. Джаладян. Основы туризма : учебник. - М.: КНОРУС, 2008. – 316 с. (400 с.)
6. Л. В Стахова. Основы туризма : учебник для вузов. - М.: Издательство Юрайт, 2022. -8 с. (327)
7. I.S.Tuxliyev, G'.X.Qudratov. M.Q.Pardayev. Turizmni rejalashtirish. – T.: IQTISOD-MOLIYA-32 b (264).

Ж.Зайналов, М.Умирзокова Социально-экономическое значение развития сферы туристских услуг Аннотация. В данной статье анализируются экономические механизмы сокращения бедности за счет развития туристических услуг в Узбекистане. Туризм рассматривается как важный фактор повышения занятости населения, особенно в сельских районах, формирования дополнительных источников дохода и эффективного использования местных ресурсов. Также освещаются возможности создания новых рабочих мест и повышения экономической активности населения за счет расширения туристических услуг. Ключевые слова: туристические услуги, бедность, экономический механизм, занятость, сельские районы, местные ресурсы, доход, сфера услуг, экономическая активность, развитие	J. Zaynalov, M.Umirzoqova Socio-economic importance of tourism services development Abstract. This article analyzes the economic mechanisms of poverty reduction through the development of tourism services in Uzbekistan. The tourism sector is considered an important factor in increasing employment, especially in rural areas, creating additional sources of income, and efficiently utilizing local resources. It also highlights the opportunities for creating new jobs and enhancing the economic activity of the population through the expansion of tourism services. Keywords: tourism services, poverty, economic mechanism, employment, rural areas, local resources, income, service sector, economic activity, development
--	---

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.